




## Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-mart)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm, o'zgarish sur'ati % da



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020 yilning yanvar-martoylarida viloyat korxonalari tomonidan 3908,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli (mos, yanvar-mart oyiga) davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi,\* 105,6 % ni tashkil etdi.

- B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C - Ishlab chiqaradigan sanoat
- D - Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 94,1% ni tashkil etdi.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 18,3 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 3,4 % ga o'sishi xizmat qildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 18,6 % ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 66,2 % ga pasayish kuzatildi.

*\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*




## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 66,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,7 % ini tashkil etdi.

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

O'tgan yilning shu davriga nisbatan shag'al qazib olish - 2,6 %, neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ilash xizmatlari - 0,8 % ga oshgan, texnik oltingugurt qazib olish esa 11,4 % ga pasaygan.




Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Texnik oltingugurt, <i>tonna.</i>	394,0	349,0	-45,0
Shag'al, <i>tonna.</i>	11659,4	11967,0	307,6
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ilash xizmatlari, mln <i>so'm.</i>	61432,2	61924,4	492,2

## Ishlab chiqaradigan sanoat


2020-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3679,2 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,1 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




## Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi boʻyicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2019-yil yanvar-mart oylarida - 0,1 %), oʻrta-yuqori texnologiyali - 1,5 % (1,8 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 55,2 % (61,0 %) va quyi texnologiyalisi - 43,2 % (37,1 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash maxsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi - 71,8 (2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 96,4 %), kimyo mahsulotlari rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,6 % (2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 119,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 18,6 % (2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,0 %), yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 0,1 % (2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,6 %), boshqa nometall mineral maxsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi - 7,0 % (2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,0 %) ni tashkil etdi.


**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**


2020-yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 307,5 ming litr aroq (2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 17,9 % ga o'sgan), 198,1 ming tonna avtomobil benzini (15,8 %), 190,9 ming litr uzum musallasi (vino) (12,7 %), 22,0 ming tonna un mahsuloti (3,5 %), ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Aroq, ming litr.	260,8	307,5	46,7
Avtomobil benzini, ming tonna	171,1	198,1	27,0
Un mahsuloti, ming t.	21,2	22,0	0,8
Vino, ming litr.	169,4	190,9	21,5



**Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish, % da
Paxta tolasi, <i>ming t.</i>	46,2	27,6	-18,6
O'simlik yog'l tozalangan, <i>ming t.</i>	10,7	7,3	-3,4
Dizel yoqilg'isi, <i>ming t.</i>	191,0	158,6	-32,4
Suyultirilgan propan va butan, <i>ming t.</i>	2,4	3,0	0,6
Paxta chigiti, <i>ming t.</i>	69,4	46,2	-23,2

Ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda Suyultirilgan propan va butan 23,4 % ga (2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan) o'sishini kuzatish mumkin shuningdek paxta tolasi 59,7 % ga, o'simlik yog'l 68,8 % ga, dizel yoqilg'isi 83,0 %, ga paxta chigiti 66,6 % mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida pasayish kuzatildi.

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

■ jami ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,% da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 135,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,5 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 103,4 % ga oshganligi kuzatildi, 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 38,1 % ga o'sganligini shuningdek Issiqlik energiyasi 8,0 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.


**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalaridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	1,2	1,6	0,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal.	408,8	376,2	-32,6



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 28,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln so'm	10683,8	13384,5	2700,7
Axlat o'ralarini, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - mln so'm	78,4	92,6	14,2

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 25,3 % ga, Axlat o'ralarini, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 18,1 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1163,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 5,9 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 29,8 % ni tashkil etdi.

2020-yil yanvar-mart



2019-yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020-yil yanvar-mart oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 62,1 % dan 63,7 % gacha oshganligi qayd etildi.

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahar 235,0 mlrd (viloyat iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmning 20,2 %) ni Qorovulbozor tumani 295,3 mlrd. (25,4 %), G'ijduvon tumani 92,7 mlrd. (8,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyatda o'sish sur'ati (105,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qorako'l tumanida (151,9 %), Qorovulbozor tumanida (115,6 %), Peshko' tumanida (112,0 %), Romitan tumanida (109,4 %) Olot tumanida (106,4 %), qayd etildi.



**Shahar va tumanlar kesimi bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
(2020-yilning yanvar-mart oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1163,2</b>	<b>100,0</b>	<b>105,9</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Buxoro shahar	235,0	20,2	97,8
Kogon shahar	62,2	5,3	75,0
Olot tumani	25,3	2,2	106,4
Buxoro tumani	66,9	5,7	104,5
Vobkent tumani	62,6	5,4	105,1
G'ijduvon tumani	92,7	8,0	102,1
Kogon tumani	52,6	4,5	106,0
Qorako'l tumani	84,6	7,3	151,9
Qorovulbozor tumani	295,3	25,4	115,6
Peshko' tumani	27,4	2,4	112,3
Romitan tumani	47,8	4,1	109,4
Jondor tumani	64,1	5,5	102,8
Shofirkon tumani	46,7	4,0	101,5

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, 21,6%, shuningdek, Qorako'l tumanida 14,5 % ni, G'ijduvon tumanida 10,5 % ni, Buxoro tumani 10,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Qorako'l tumanida (164,7 %), Qorovulbozor tumanida (109,0 %), Peshko' tumanida (104,7 %), Romitan tumanida (103,3 %), Vobkent tumanida (103,0 %) qayd etildi.




**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020-yilning yanvar-mart oylarida)**

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>422,5</b>	<b>100,0</b>	<b>101,4</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Buxoro shahar	91,2	21,6	92,7
Kogon shahar	30,9	7,3	66,0
Olot tumani	11,6	2,7	93,6
Buxoro tumani	43,2	10,2	101,5
Vobkent tumani	21,9	5,2	103,0
G'ijduvon tumani	44,3	10,5	102,1
Kogon tumani	16,9	4,0	102,9
Qorako'l tumani	61,1	14,5	164,7
Qorovulbozor tumani	4,2	1,0	109,0
Peshko' tumani	14,1	3,3	104,7
Romitan tumani	17,9	4,2	103,3
Jondor tumani	38,4	9,1	102,5
Shofirkon tumani	26,9	6,4	102,4

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 39,3 %, shuningdek, Buxoro shahri 19,4 % ni, G'ijduvon tumanida 6,5 % ni, Vobkent tumanida 5,5 % ni hamda Kogon tumanida 4,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyatdagi o'sish sur'ati (108,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qorako'l tumanida (126,4 %), Peshko' tumanida (121,1 %), Olot tumanida (120,3 %) tumanlarida hamda Qorovulbozor tumanida (115,7 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020-yilning yanvar-mart oylarida)**

	<b>Mrd. so'm</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan % da</b>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>740,7</b>	<b>100,0</b>	<b>108,6</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Buxoro shahar	143,8	19,4	101,4
Kogon shahar	31,3	4,2	86,7
Olot tumani	13,7	1,9	120,3
Buxoro tumani	23,7	3,2	110,3
Vobkent tumani	40,7	5,5	106,0
G'ijduvon tumani	48,4	6,5	102,1
Kogon tumani	35,7	4,8	107,5
Qorako'l tumani	23,5	3,2	126,4
Qorovulbozor tumani	291,1	39,3	115,7
Peshko' tumani	13,3	1,8	121,1
Romitan tumani	29,9	4,0	113,4
Jondor tumani	25,7	3,5	103,3
Shofirkon tumani	19,8	2,7	100,4



### Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 220,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 5,6 % ni tashkil etdi. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish eng koʻp Kogon tumanida 67,5 mlrd soʻmni hamda Kogon shaharda 75,8 mlrd soʻmni tashkil etdi.


	Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi	Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi %
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>220,5</b>	<b>5,6</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>		
Buxoro shahar	34,2	7,7
Kogon shahar	75,8	37,8
Olot tumani	-	-
Buxoro tumani	8,4	11,8
Vobkent tumani	27,5	34,0
Gʻijduvon tumani	0,2	0,1
Kogon tumani	67,5	51,5
Qorakoʻl tumani	2,0	1,9
Qorovulbozor tumani	0,3	-
Peshkoʻ tumani	-	-
Romitan tumani	4,3	3,8
Jondor tumani	0,3	0,3
Shofirkon tumani	-	-


**Buxoro viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2020-yil yanvar-mart mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi % da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>3908,7</b>	<b>105,6</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>		
Buxoro shahar	441,4	107,1
Kogon shahar	200,5	105,5
Olot tumani	102,0	90,5
Buxoro tumani	71,4	67,2
Vobkent tumani	80,8	76,2
G'ijduvon tumani	318,3	119,9
Kogon tumani	131,1	135,8
Qorako'l tumani	107,3	86,4
Qorovulbozor tumani	2031,5	100,5
Peshko' tumani	104,4	103,0
Romitan tumani	113,6	81,8
Jondor tumani	102,3	81,6
Shofirkon tumani	104,1	129,9




**Buxoro viloyati ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi % da**



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 52,0 %), Buxoro shahar (11,3 %), Kogon shahar (5,1 %), G'ijduvon tuman (8,1 %), hamda Kogon tuman (3,4 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Buxoro tuman (1,8 %) tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, Kogon tumani (2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 135,8 %), G'ijduvon (119,9 %), Shofirkon (129,9 %), Peshko' (103,0 %) tumanlarida hamda Buxoro (107,1 %) shahrida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.






**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**  
(2020-yil yanvar-mart oylarida, ming so'm)

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>2028,9</b>	<b>603,8</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>		
Buxoro shahar	1573,6	838,0
Kogon shahar	3281,4	1017,4
Olot tumani	1028,8	255,6
Buxoro tumani	428,9	401,5
Vobkent tumani	578,5	448,1
G'ijduvon tumani	1047,7	305,2
Kogon tumani	1676,6	672,1
Qorako'l tumani	654,4	516,0
Qorovulbozor tumani	111007,7	16134,4
Peshko' tumani	851,2	223,3
Romitan tumani	803,9	338,6
Jondor tumani	587,1	368,2
Shofirkon tumani	587,9	263,5



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi  
(2020-yil yanvar-mart oylarida % da)**

Kichik korxonalar va mikrofirmalar sub'ektlari tomonidan 1031,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 26,4 % ni tashkil etmoqda shuningdek sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121,7 % ga o'sishi ta'minlandi,.




Viloyatimiz shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Qorovulbozor tumani (0,7 %), kogon shahar (23,3 %) va Peshko' (26,4 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




**Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 3955 ta ro'yxatdan o'tgan bo'lib shundan 3730 tasi sanoat korxonalari faoliyat yuritayotgan korxonalar hisoblanadi.



2020-yil yanvar-mart oyida viloyatda 230 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 50 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 21,7 %) Buxoro shahrida, 39 tasi (17,0 %) G'ijduvon tumanida, 22 tasi (10,0 %) Vobkent tumanida, hamda 18 tasi (7,8 %) Romitan tumanida tashkil etildi.





### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 23 ta loyiha bo'yicha 82,2 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 2,0 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2020-yil yanvar-mart oylarida 217 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 21,7 martaga oshdi.



### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari (mlrd. so'mda)

	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	12	23
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	7	22
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. so'm</i>	12,2	82,2
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh dollar</i>	-	2,0
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, <i>birlik</i>	10	217

Buxoro viloyati statistika boshqarmasi  
Sanoat statistikasi  
bo'limi  
Tel.: (71) 230-83-05